

“Ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi”

✘ Joriy yilning 15 mart kuni Suv xo’jaligi vazirligining bir guruh mutaxassislari, jumladan, “Yerlar melioratsiyasi” boshqarmasi boshlig’i N.Allaberganov va soha mutaxassislari ishtirokida “Gidromelioratsiya” fakulteti, “Suv xo’jaligi va melioratsiya” ta’lim yo’nalishida tahsil olayotgan 4-bosqich talabalariga “Respublikada sug’oriladigan yerlarining meliorativ holatini yaxshilash chora-tadbirlari” mavzusida ilmiy seminar o’tkazdi. Ushbu seminarda bitiruvchi kurs talabalarini olgan nazariy bilimlarini amaliyotda, ishlab chiqarishda qo’llash usullari va imkoniyatlari to’g’risida ma’lumot berildi.

Bunda XXI asrda qishloq va suv xo’jaligi sohalarda qo’llanilishi mumkin bo’lgan ko’nikmalar haqida to’xtalib o’tildi. Ushbu mavzu talabalarda katta qiziqish uyg’otdi, ular shiddatli o’zgarishlar davriga munosib mutaxassis bo’lib yetishish uchun nimalar ustida ishlashlari kerakligi to’g’risida ma’lumotlarga ega bo’ldilar. Uchrashuv so’ngida talabalar o’zlarini qiziqtirgan savollarga atroflicha javoblar olishdi.

GM fakulteti dekan o’rinbosari X.Tuychiyev axboroti

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov